

MUSIQIY XAZINANING UCH KALITI

Zoidov Asilbek Ernazar o'g'li,

Musiqqa ta'limi va san'at
yo'nalishi, 2-kurs magistri

Fayzullaev Ermat Majidovich,

Ilmiy rahbar, JDPI "Musiqiy ta'lim"
kafedrasi dotsenti v/b, p.f.n

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqqa madaniyati darslarida shaxs komolotini shakllantirishning pedagogik jihatlari, milliy kuy qo'shiqlarimiz, musiqiy merosimiz imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan taklif-mulohazalar, musiqiy faoliyatdagi uch qirra, ya'ni musiqqa tinglash qobiliyati, musiqiy did va musiqiy sezgirlik jihatlari natijasida musiqqa tinglovchisi yoki ijrochisining umumiy badiiy didini qay darajada rivojlanganligini belgilab beruvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalitli so'zlar: musiqqa, tovush, estetik tarbiya, musiqqa asari, musiqqa tinglash, musiqiy did, musiqiy idrok, ritm, tembr, badiiy did.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tadbir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa'yi harakatlari bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha" "Harakatlar strategiyasi"ni hayotga tadbir etish lozimligi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur "Harakatlar strategiyasi" har birimizdan harakat va mas'uliyatni talab qiladi! Shundan kelib chiqqan holda "Harakatlar strategiyasi"ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.¹

Halqimizning asriy orzusi bo'lib kelgan mustaqillikka erishish niyati Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimov boshchiligida amalga oshirilib, konstitutsion huquq tarzida qonun bilan mustahkamlandi. Natijada xalq xo'jaligining barcha sohaları qatorida fan taraqqiyoti, jumladan milliy musiqamiz tarixini o'rganish va rivojlantirish uchun ham keng shart-sharoitlar vujudga keldi. Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk

¹ Ш.М.Мирзиёев. Буёқ келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Т.Ў. 2017.

shoirnlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda ulug' adiblarimiz aytganidek: "San'at, adabiyot yashasa, millat yashaydi".²

Hozirgi yangilanayotgan jamiyatning rivojlanishi insonni tarix, madaniyat va o'z hayotining ob'ekti sifatida bilishni shakllantirish va rivojlantirish imkoni vujudga kelgan bir sharoitda "inson – ijodkor shaxs" sifatida baholanmoqda. Insonga jamiyatning mavhum bir zarrasi sifatida emas, balki dunyoni o'zgartiradigan qudratli kuch, ijodkor, erkin shaxs sifatida munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Ana shunday yondashish insonni to'laqonli ya'ni zamon talabi darajasida rivojlangan inson-mutelikdan, ma'naviy qashshoqlikdan holi bo'lgan Vatan, millat va davlat manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sifatida kamolga yetishga olib keladi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, o'quvchilarning ob'ektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o'quvchilarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng

² И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият 2008.

muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o'rinda Asafevning "...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin"³ - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

Xalqimizning musiqiy merosini o'ziga xos bir xazina desak, uning uchta qulfi bo'lib, musiqa tinglovchining va ijrochining uch muhim o'zaro bir-birlariga bog'liq jihatlari, unga tushadigan kalitlar hisoblanadi. Bularni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Musiqani tinglay olish qobiliyati.
2. Musiqiy did.
3. Sezgirlilik, musiqiy idrok.

Musiqani tinglay olish qobiliyati faqat uni eshitishdangina iborat bo'lmay, balki anchagina murakkab jarayondir. Xususan, ayrim kishilar musiqani yaxshi eshita olishlari barobarida, unga bee'tibor bo'ladilar. Bunday kishilarga har qanday go'zal musiqa ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Yana bir jihati, musiqani tinglay oluvchilarning hammasini ham birday musiqa tinglash qobiliyati yaxshi deb bo'lmaydi. Musiqani yaxshi tinglay oluvchilarda quyidagi muhim tahliliy qobiliyatlar rivojlangan bo'ladi:

1. Musiqani tinglay olish uquvi.
2. Tovushlarning baland-pastligi, intervallarni idrok etish.
3. Ritm tuyg'ularining yaxshi shakllanganligi.
4. Tovushlarni bir-birlariga yaxshi qo'shib keta olish uquvi.
5. Tovushlar tembri (bo'yog'i)ni his qilish qobiliyati.
6. Tovushlarning baland-past jaranglashini his qilish.
7. Bir ovozlilarni yaxshi esda saqlab qola olish qobiliyati.

³ Соипова Д. Муסיкий-назарий билимларни ўзлаштириш жараёнини такомиллаштириш. Т.:Фан ва технологиялар нашриёти, 2005 й., -84 бет.

8. Ko'p ovozli asarlardagi gamafon-garmonik interval va akkordlarning jarangdorligini his etish.
9. Imitatsion holatlarni his etish.
10. Musiqiy asarning shaklini bila olish va hokazo...

Musiqqa pedagogikasi musiqiy qobiliyatning barcha turlarini tizimli mashq qildirish orqali rivojlantirish mumkinligini isbotlab berdi. Bu jihatlar tahliliy qobiliyat sifatida, oxir-oqibatda musiqqa tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishga imkon berishini ko'rsatdi.

Sharq allomalari musiqqa insonning ichki dunyosiga kirib borishi va uni boyitish borasida ko'plab fikrlarni aytganlar. Sharqda musiqqa vositasida bemor kishilarni davolash qadimdan keng tarqalgan. Xususan, buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida ruhiy kasallarni musiqqa orqali davolaganligini yozadi.

Musiqqa ta'sirida inson ruhiyatida jasorat ko'rsatish istagi, g'ayratining jo'sh urishi hollari yuz berishi mumkin.

Musiqqa san'atining nodir na'munalarini ijro etish va ularni tinglash jarayoni faqat musiqiy qobiliyatdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki u talabalarning badiiy didini ham rivojlantirib boradi. Xususan, musiqiy did-bu talabalarning asl, nodir badiiy asarlar va ularning ijrosini, sun'iy, sayoz va bo'sh asarlardan ajrata bilish qobiliyatidir.

Musiqiy qobiliyat bilan musiqiy did har doim bir-biriga mos kelavermaydi. Hayotda kuchli musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan holda, haqiqiy durdona musiqiy asarlarni unchalik tushunmaydigan san'atkorlarni ham uchratish mumkin. Xususan, murakkab janrdagi mumtoz maqom asarlarini tan olmaydigan, ulardagi badiiy saviyaning nihoyatda baland ekanligini his etmaydigan, ammo, ayni paytda, katta musiqiy qobiliyat sohibi bo'lgan kishilar bor. G'arb musiqqa asarlari bo'yicha yaxshigina mutaxassislikka ega bo'lganlari holda, o'zbek mumtoz musiqiy asarlarini idrok qila olmaydigan kishilar ham mavjud.

Musiqiy did musiqani tinglay olish va uni idrok qilish qobiliyatiga nisbatan anchagina murakkab bo'lib, u kishidan alohida sezgirlik xususiyatini ham talab qiladi.

Musiqiy didning rivojlanganligini faqatgina nodir asarlarni badiiy bo'sh asarlardan farqlay olish qobiliyatigagina qarab emas, balki boshqa bir qator nozik tuyg'ularning mavjudligiga qarab ham aniqlash mumkin.

Musiqiy didning rivojlanganligini ijro mahorati ham belgilaydi. Bunda muhim jihat asarni yuksak did bilan hamda musiqaning tili hisoblangan ovozlar tembri, soz, ansambl, n'yuanlardan unumli foydalanib ijro eta olish sirlarida namoyon bo'ladi. Musiqani idrok etishning muhim jihatlaridan yana biri – bu sezgirlik bo'lib, u tinglovchi yoki ijrochidan alohida qobiliyat talab etadi.

Asar ijrosidagi alohida nafosat, kamdan-kam uchraydigan texnika va nozik didlilikni his etish tuyg‘usi – sezgirlik hisoblanadi. Ijrolardagi badiiy saviya bir-biriga yaqin, nihoyatda yuksak darajada bo‘lgan holatlarda, ularning nozik jihatlarini ilg‘ab baholash uchun, aynan, shu sezgirlik lozim bo‘ladi. Ayrim asarlar yuksak texnikada ijro etilgan bo‘lsada, nimadir yetishmaydi, qandaydir sovuqlik borday, qalb harorati qo‘shilmaganday tuyuladi. Bunday ijroni tinglagan kishining qalbida go‘zallikka intilish, undan lazzatlanish hislari paydo bo‘lmaydi. Tinglovchi - musiqachi sifatida bu ijroni o‘zining ijrochilik mahoratiga bevosita solishtirib ko‘radi va o‘ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining qalbida aynan shu xislatlarni shakllantirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy faoliyatdagi bu uch qirra, ya’ni musiqa tinglash qobiliyati, musiqiy did va musiqiy sezgirlik oxir-oqibatda musiqa tinglovchisi yoki ijrochisining umumiy badiiy didini qay darajada rivojlanganligini belgilab beradi.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz.
3. O.Musurmonova. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: - Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1993. – 364 b.
4. Vetlugina N.A. Razvitie muzыkalных sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzыkalных igr. M.: APN, 1988g., -247str.
5. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma’naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqiy ta’lim va ma’naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to‘plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
6. F.N.Xalilov. Didakticheskie osnovы instrumentalno-ispolnitelskoy podgotovki budущix uchiteley muzyki: Avtoref.diss. ... dokt.ped.nauk. – T.: 2006. – 48 s.
7. N.B.Toshtemirov. Uzbekskoe narodnoe pesennoe tvorchestvo Djizakskoy oblasti: Avtoref.diss. ... kand.iskuss. – T.: 1993. – 18 s.
8. Kiyamov N. Musiqa darslarida o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo‘llari // Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi: Respublika ilmiy-amaliy materiallari to‘plami. Musiqa yo‘nalishi. – Toshkent, 2009. – B. 142-144.

⁴ Э.М.Файзуллаев. Бўлажак музика ўқитувчилари бадий дидини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари (ўзбек мумтоз музикаси мисолида). Пед.фан.номз... диссертацияси. ТДПУ. Т.: 2010й.

9. Fayzullaev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010 y.